Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319969

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT BOZORINING STATISTIK TAHLILI

TOSHTEMIROV HABIBULLO DAVRON O'G'LI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-kurs talabasi
Email: toshtemirovhabibulla@gmail.com
Tel: +998900244564
Ilmiy maslahatchi: kat.o`qituvchi **ZOKIROVA MUNISA JAMOLIDDIN QIZI**
Email: munisahusniddinova9@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mehnat bozori asosiy ko'rsatkichlari, ularning tavsifi, yillar bo'yicha vaqtli qatorlari, so'nggi yillarda O'zbekiston hududlari va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalari hamda statistik tahlillari amalga oshirilgan.*

Kalit so'zlar: *mehnat bozori, bandlik darajasi, ishsizlik darajasi, mehnat migratsiyasi, aholi daromadlari, real daromadlar, bandlik tarkibi, iqtisodiy faoliyat turlari, vaqtli qatorlar, o'sish sur'ati*

Аннотация: *В данной статье проведены значение основных показателей рынка труда, их описание, динамические ряды по годам, тенденции изменения основных показателей труда в последние годы в регионах Узбекистана и видах экономической деятельности, а также осуществлены статистический анализ.*

Ключевые слова: *рынок труда, занятость, безработица, трудовая миграция, доходы населения, реальные доходы, структура занятости, виды экономической деятельности, динамический ряд, темпы роста*

Annotation: *The article contains the meaning of the main indicators of the labor market, their description, time series analysis, trends in the changes in the main indicators of labor market in recent years in the regions of Uzbekistan and types of economic activity, and also includes a statistical analysis.*

Keywords: *abor market, employment rate, unemployment rate, labor migration, population income, real income, employment structure, economic activities, time series, growth rate*

KIRISH

Mehnat bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning holati va o'zgaruvchan tendensiyalari aholi hayoti va turmush darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Statistik ma'lumotlar siyosatchilarga mehnat bozori tendensiyalarini tushunishga, muammoli sohalarni aniqlashga va ishsizlik, to'liq bandlik ta'minlanmaganligi hamda malakalar nomutanosibligini bartaraf etish uchun samaralisiyosatni ishlab chiqishga yordam beradi. Korxonalar ishga qabul qilish, kadrlarni o'qitish va ish haqi strategiyalari bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish

Published: 05.06.2026

Cite this article: Toshtemirov Habibullo Davron o'g'li, Zokirova Munisa Jamoliddin qizi (2026). O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorining statistik tahlili. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319969

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

uchun mehnat bozori ma’lumotlaridan foydalanadi. Ish izlovchilar mehnat bozori ma’lumotlaridan talab yuqori bo‘lgan ko‘nikmalarni aniqlash, muayyan tarmoqlarga e’tibor qaratish va ish qidirish strategiyalarini moslashtirish uchun foydalanishi mumkin. Ishsizlik darajasi, bandlik darajasi va ishchi kuchi ishtiroki darajasi kabi ko‘rsatkichlar umumiy iqtisodiy holatning asosiy indikatorlari hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekiston ham mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari o‘zgarishining muayyan tendensiyalariga ega bo‘lib, ular statistik tahlil va o‘rganishni talab qiladi.

Ushbu maqolada O‘zbekistonda mehnat bozori asosiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyalarini qiyosiy tahlil qilishda dinamika o‘rtacha sur’atlarini hisoblash, ma’lumotlarni guruhlash va jamlash, arifmetik o‘rtacha, o‘rtacha o‘sish sur’ati hamda nisbiy ko‘rsatkichlar usullaridan foydalanilgan. Masalan, bandlik darajasidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun yillar, hududlar yoki iqtisodiyotning alohida tarmoqlari bo‘yicha tahlili amalga oshirildi. Bunday tahlil qaysi sohalarda bandlikning ortishi yoki kamayishi, bunga qanday omillar ta’sir etishi mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O‘zbekistonda mehnat bozori asosiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyalarini qiyosiy tahlil qilishda dinamika o‘rtacha sur’atlarini hisoblash, ma’lumotlarni guruhlash va jamlash, arifmetik o‘rtacha, o‘rtacha o‘sish sur’ati hamda nisbiy ko‘rsatkichlar usullaridan foydalanilgan. Masalan, bandlik darajasidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun yillar, hududlar yoki iqtisodiyotning alohida tarmoqlari bo‘yicha tahlili amalga oshirildi. Bunday tahlil qaysi sohalarda bandlikning ortishi yoki kamayishi, bunga qanday omillar ta’sir etishi mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida, shuningdek aholi bandligini ta’minlash va ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirishda demografik holat muhim o‘rin tutadi. 2024 – yilning 1 – yanvar holatiga ko‘ra, mamlakatimizda yashovchi doimiy aholi soni 36,8 mln kishini tashkil etib, yil davomida 774,9 ming kishiga yoki 2,2 % ga ko‘paygan. Bundan ko‘rinib turibdiki har yili aholi soni o‘rtacha 700 ming kishiga ortmoqda. Aholining asosiy qismini, ya’ni 56,3 %ini mehnatga layoqatli yoshdagilar tashkil etgan bo‘lsa, o‘z o‘rnida 32,6 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar va 11,1%i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. O‘tgan 2023 – yilda respublikamizda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 20 505,3 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichni 2016 – yil ma’lumotlari bilan taqqoslanganda 1 248,3 ming kishiga yoki 6,5 foizga ko‘payganligi kuzatildi. Bu esa o‘z o‘rnida yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta’minlash va ishsizlikni kamaytirish choralarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri

hisoblangan bandlik darajasi ko‘rsatkichi ma’lum bir ish joyida band bo‘lgan iqtisodiy faol aholi ulushini aks ettiradi.

Mazkur jadvalda O‘zbekiston Respublikasida mehnat bozori va migratsiya jarayonlarining 2023–2025-yillar kesimidagi asosiy ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. Unda mehnat resurslari soni, band aholi, ishsizlar soni, ishsizlik va bandlik darajalari, shuningdek o‘zini-o‘zi band qilganlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq muhim ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi.

Jadval ma’lumotlari asosida mamlakatda mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalari, bandlik siyosatining samaradorligi hamda tashqi mehnat migratsiyasining iqtisodiy ahamiyati baholanadi. Shu bilan birga, prognoz ko‘rsatkichlari orqali kelgusi yillarda mehnat bozorida yuz berishi kutilayotgan o‘zgarishlar ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

1-jadval

Ko‘rsatkich	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Mehnat resurslari (mln kishi)	19,52	19,72	**20,35**
Band aholi (mln kishi)	14,01	14,26	**14,81**
Ishsizlar soni (mln kishi)	1,3	**0,9**	**0,76**
Ishsizlik darajasi (%)	6,8%	5,5% - 5,7%	**4,9%**
Bandlik darajasi (XMT bo‘yicha, %)	54%	55%	**56,2%**
O‘zini-o‘zi band qilganlar (mln kishi)	2,5	4,5	**5,5**
Yakka tadbirkorlar (ming kishi)	240	284	**296**
Mehnat muhojirlari soni (mln kishi)	4,8	6,2	**6,5**
Pul o‘tkazmalari (mlrd AQSh doll.)	11,4	14,9	**18,5 - 19,0**

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2023–2025-yillar davomida O‘zbekistonda mehnat resurslari hajmi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, 19,52 mln kishidan 20,35 mln kishiga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa demografik o‘sish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mehnat bozoriga yangi ishchi kuchining kirib kelishini anglatadi. Band aholi sonining 14,01 mln kishidan 14,81 mln kishiga oshishi ijobiy holat sifatida baholanadi. Shu bilan birga, ishsizlar sonining kamayib borishi va ishsizlik darajasining 6,8 foizdan 4,9 foizgacha pasayishi mamlakatda olib borilayotgan bandlik siyosatining samaradorligini ko‘rsatadi. O‘zini-o‘zi band qilganlar sonining keskin oshishi (2,5 mln kishidan 5,5 mln kishigacha) iqtisodiyotda norasmiy bandlikning kengayib borayotganligini bildiradi. Bu esa bir tomondan aholi daromadlarini oshirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan uni rasmiylashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichlarining oshib borishi (4,8 mln kishidan 6,5 mln kishigacha) va pul o‘tkazmalari hajmining sezilarli darajada ko‘payishi (11,4 mlrd dollardan 19 mlrd dollargacha) tashqi mehnat migratsiyasining milliy iqtisodiyotdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Bu mablag‘lar aholi farovonligini oshirishda va ichki iste’molni qo‘llab-quvvatlashda muhim manba hisoblanadi.

Umuman olganda, keltirilgan ma’lumotlar asosida O‘zbekistonda mehnat bozori ijobiy rivojlanish dinamikasiga ega ekanligi, bandlik darajasi oshib borayotgani hamda ishsizlik kamayib borayotgani kuzatiladi. Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi va norasmiy bandlikni tartibga solish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish zarur.

Umuman olganda, bu ma’lumotlar kichik biznes doimo barqaror rivojlanmay, balki iqtisodiy sharoitga qarab o‘zgarib turishini ko‘rsatadi. Shu sababli uni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish doimiy e’tibor talab qiladi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishida kichik tadbirkorlik subyektlari ulushini aniqlash iqtisodiyotni chuqur tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko‘rsatkich orqali kichik biznesning real sektor, xususan sanoat tarmog‘idagi ishtiroki, uning iqtisodiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi hamda tarkibiy o‘rni baholanadi. Shuningdek, mazkur ulush kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini aniqlash, sanoatni diversifikatsiya qilish darajasini baholash va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy sektorlar kesimida band aholining tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi aks ettirilgan. Unda xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, sanoat hamda qurilish sohalarida band bo‘lgan aholining ulushi foizlarda ifodalangan.

Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilmasini, bandlikning sektorlar bo‘yicha taqsimlanish xususiyatlarini hamda iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari

Xizmat ko‘rsatish	**52,0%**
Qishloq xo‘jaligi	**23,5%**
Sanoat	**14,5%**
Qurilish	**10,0%**

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, band aholining eng katta qismi xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri kelib, uning ulushi 52,0 foizni tashkil etadi. Bu holat iqtisodiyotda xizmatlar sektorining ustuvor rivojlanayotganligini va iqtisodiy faoliyatning tobora xizmatlar tomon siljiyotganligini ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi sohasida bandlik ulushi 23,5 foizni tashkil etib, ushbu sektor hali ham muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Ayniqsa, qishloq hududlarida aholi bandligini ta’minlashda ushbu tarmoq yetakchi o‘rin tutadi. Sanoat sohasining ulushi 14,5 foizni tashkil etgani, mamlakatda sanoatlashtirish jarayonlari davom etayotganini, biroq uning bandlikdagi ulushi hali xizmatlar sektoriga nisbatan past ekanligini ko‘rsatadi. Qurilish sohasida esa 10,0 foiz bandlik kuzatilib, bu infratuzilma va investitsiya loyihalarining faolligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, mazkur tarkibiy tuzilma O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sektorining yetakchi o‘ringa chiqayotganligini, qishloq xo‘jaligining esa barqaror ahamiyatini saqlab qolayotganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sanoat va qurilish sohalarida bandlik ulushini oshirish orqali iqtisodiyotning diversifikatsiyasini kuchaytirish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Mazkur jadvalda O‘zbekiston Respublikasida aholi daromadlarining 2020–2023-yillar kesimidagi asosiy ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. Unda aholi umumiy daromadlari, jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar, shuningdek real daromadlar dinamikasi keltirilgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar aholi farovonlik darajasi, turmush sifati hamda iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, nominal va real daromadlar o‘rtasidagi farq orqali inflyatsiya ta’siri va daromadlarning haqiqiy o‘sishi tahlil qilinadi.

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024 (baho)	2025 (prognoz)
Aholi umumiy daromadlari, mlrd so‘m	414 968,7	519 181,4	633 567,4	728 826,1	845 000	970 000
Jon boshiga umumiy daromad, ming so‘m	12 122,2	14 869,8	17 772,8	20 015,9	22 500	25 300
Aholi real umumiy daromadlari, mlrd so‘m	367 456,6	468 448,4	568 527,8	662 749,9	740 000	820 000

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024 (baho)	2025 (prognoz)
Jon boshiga real daromad, ming so‘m	10 734,3	13 416,8	15 948,3	18 201,2	20 100	22 000

3-jadval

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020–2023-yillar davomida aholi umumiy daromadlari barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, 414 968,7 mlrd so‘mdan 728 826,1 mlrd so‘mgacha oshgan. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida ijobiy o‘sish sur’atlari kuzatilayotganini hamda aholi daromadlari hajmi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar ham mos ravishda 12 122,2 ming so‘mdan 20 015,9 ming so‘mgacha oshib, aholi farovonligining yaxshilanib borayotganligini anglatadi. Shu bilan birga, real daromadlarning ham o‘sib borishi (367 456,6 mlrd so‘mdan 662 749,9 mlrd so‘mgacha) daromadlarning inflyatsiya ta’siridan holi holda ham ortayotganini ko‘rsatadi. Aholi jon boshiga real daromadlarning 10 734,3 ming so‘mdan 18 201,2 ming so‘mgacha oshishi aholining xarid qobiliyati mustahkamlanayotganini ifodalaydi. Bu esa ichki iste’molning kengayishiga va iqtisodiy faollikning ortishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tahlil natijalari O‘zbekistonda aholi daromadlari ijobiy dinamikaga ega ekanligini, turmush darajasi bosqichma-bosqich yaxshilanib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, real daromadlar o‘sishini barqaror saqlash, inflyatsiya darajasini nazorat qilish hamda aholi daromadlarini yanada oshirish bo‘yicha kompleks iqtisodiy choralarni davom ettirish zarur hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida mehnat resurslari va band aholi sonining ortib borayotgani, ishsizlik darajasining esa izchil kamayib borayotgani kuzatildi. Bu mamlakatda amalga oshirilayotgan bandlik siyosati va iqtisodiy islohotlarning ijobiy natijalar berayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasining bandlikdagi ulushi yuqori bo‘lib, iqtisodiyotda tarkibiy siljishlar yuz berayotganini anglatadi. Qishloq xo‘jaligi hanuz muhim bandlik manbai bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, sanoat va qurilish sohalarining ulushini oshirish zarurati saqlanib qolmoqda. Aholi daromadlari dinamikasi ham ijobiy bo‘lib, nominal va real daromadlarning o‘sishi aholi farovonligining oshib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromadlarning ortishi aholining xarid qobiliyati mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘zini-o‘zi band qilganlar

ulushining ortishi norasmiy sektorning kengayib borayotganini bildiradi va uni rasmiylashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mehnat migratsiyasi jarayonlarining faollashuvi va pul o‘tkazmalarining ortib borishi milliy iqtisodiyot uchun muhim moliyaviy manba sifatida xizmat qilmoqda. Biroq uzoq muddatli istiqbolda ichki mehnat bozorini rivojlantirish, yuqori daromadli va barqaror ish o‘rinlarini yaratish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda mehnat bozori va aholi daromadlari sohasida ijobiy siljishlar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, demografik bosim, hududiy nomutanosiblik, norasmiy bandlik va tashqi migratsiya kabi omillarni hisobga olgan holda kompleks va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, aholi bandligini ta’minlash va farovonlik darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-158-sonli Farmoni. – Toshkent, 2023.
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019. – 560 b.
3. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2021. – 450 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi va prognozlari. – T., 2024.
5. Ishmuhammedov A.E. Iqtisodiy tahlil va prognozlash. O‘quv qo‘llanma. – T.: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2022.
6. Stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari (2020–2025 yillar).

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —